

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUHORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Ishanxodjaeva Z.R.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası professori, t.f.d

O‘zbekiston Milliy universiteti

zamira.i@rambler.ru

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, ularning sanoat va qishloq xo‘jaligidagi mehnat faolligi hamda ishlab chiqarish jarayonlaridagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda urush sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zgarishlar, ayollarning mehnat resursi sifatidagi ahamiyati hamda ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etilishi yoritilgan. Shuningdek, sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligidagi ayollar mehnatining samaradorligi tarixiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, xotin-qizlar, iqtisodiy hayot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, mehnat faolligi, front orti, evakuatsiya, to‘qimachilik sanoati.

KIRISH

XX asrning eng yirik va talofatli voqealaridan biri bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga keskin ta‘sir ko‘rsatdi. Urush oqibatida millionlab insonlar halok bo‘ldi, ko‘plab davlatlarning iqtisodiy tizimi izdan chiqdi hamda mavjud ishlab chiqarish tizimlari harbiy ehtiyojlarga moslashtirildi. O‘zbekiston ham sobiq SSSR tarkibida urush jarayonlariga bevosita jalb qilinib, mamlakat iqtisodiyoti qisqa muddat ichida harbiy izga o‘tkazildi.

1941-yilda Germaniya qo‘shinlarining SSSR hududiga bostirib kirishi natijasida mamlakatda keng ko‘lamli safarbarlik boshlandi. Erkaklarning katta qismi frontga safarbar etilishi xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida, ayniqsa sanoat va qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari tanqisligini yuzaga keltirdi. Mazkur vaziyatda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rni keskin ortib, ular ilgari asosan erkaklar faoliyat yuritgan ishlab chiqarish sohalariga keng jalb etildi. Jumladan, xotin-qizlar sanoat korxonalarida, qishloq xo‘jaligida, transport tizimida hamda evakuatsiya qilingan korxonalarni qayta tiklash va faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonlarida muhim mehnat kuchiga aylandi.

Shuningdek, urush yillarida xotin-qizlarni qisqa muddatli kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish va yangi mutaxassisliklarga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga, balki front ehtiyojlari uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda O‘zbekistonning urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti turli jihatlarida yoritilgan. Xususan, xotin-qizlarning mehnat faoliyati masalasi ham ayrim tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Biroq mazkur masalani iqtisodiy hayot kontekstida, yangi manbalar va zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, urush davrida o‘zbek xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi o‘rni, mehnat faolligi va xalq xo‘jaligidagi hissasini o‘rganish tarixiy jarayonlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi ishtirokini tadqiq etishda manbalar va metodlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuni o‘rganishda urush yillariga oid arxiv hujjatlari asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Biroq arxiv materiallarida xotin-qizlar faoliyatiga oid ma‘lumotlar ko‘pincha alohida emas, balki umumiy xo‘jalik, safarbarlik va ishlab chiqarish jarayonlari doirasida uchrashi tadqiqotda qo‘shimcha manbalarga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu sababli tadqiqot jarayonida davriy matbuot materiallari, xususan urush yillarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalardan ham foydalanish muhim hisoblanadi. Mazkur manbalar orqali xotin-qizlarning mehnat faoliyati, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish, kasbiy tayyorlash hamda front ortidagi iqtisodiy faoliyati haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, mavjud ma‘lumotlarni o‘zaro tahlil qilish va qiyoslash orqali voqea-hodisalarni kengroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqotda og‘zaki tarix materiallari ham muhim yordamchi manba sifatida e‘tiborga olinadi. Chunki urush davrini boshdan kechirgan insonlarning xotiralari va ular asosida shakllangan ma‘lumotlar tarixiy jarayonlarning ayrim jihatlarini yanada to‘laroq yoritishga xizmat qiladi.

Ikkinchi jahon urushi va unda xotin-qizlar masalasiga oid ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar, ikkinchi guruh – mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, uchinchi guruh esa xorijiy adabiyotlardan iborat. Mazkur adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish mavzuning tarixshunoslikdagi yoritilish darajasini aniqlash va xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rnini kengroq baholash imkonini beradi.

Birinchi guruhga sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin. Mazkur davr tadqiqotlarida O‘zbekiston xalqining urush yillaridagi mehnat jasorati, front va front ortidagi faoliyati hamda iqtisodiy safarbarlik masalalari keng yoritilgan. Xususan, Toshxo‘jayeva tadqiqotlarida qishloq ayollarining mehnat faoliyati, ularning front va front ortini mahsulot hamda mudofaa sanoatini xom ashyo bilan ta‘minlashdagi hissasi tahlil qilingan[1].

Y. Ibragimova urushning dastlabki yilida respublika xalq xo‘jaligiga 128 815 nafar ayol jalb qilinganligini qayd etsa[2], I. Po‘latov[3], R. Aminova[4] hamda B.A. Orduxanov[5] tadqiqotlarida mehnat resurslarini qayta taqsimlash, qishloq

xo'jaligi siyosati va xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalb etish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, H.S. Shukurova[6], H.S. Sulaymonova[7], Z. Rahimbayeva[8], M. Oxunova[9], V.S. Murmantseva[10] va Z.F. Ibragimova[11] kabi mualliflarning tadqiqotlarida xotin-qizlarning urush yillaridagi mehnat faolligi hamda ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, sovet davrida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda xotin-qizlar faoliyati ko'proq davr mafkurasi va davlat siyosati nuqtai nazaridan talqin etilib, ularning iqtisodiy hayotdagi amaliy hissasiga nisbatan kamroq e'tibor qaratilgan.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar kiritiladi. Ushbu davrda Ikkinchi jahon urushi tarixi mafkuraviy yondashuvlardan xoli holda, yangi metodologik asoslarda o'rganila boshlandi. 5 jildidan iborat *“O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida”* kitob-albomida urush yillaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar yangi manbalar asosida yoritilgan[12].

R.E. Xalikova[13], H.I. Azimov[14], X.B. Babadjanov[15], S.B. Murtozova[16], B.O'. Ungboyeva[17], Z.S. Safarova[18], F.J. Jumaniyazova[19] va Sh.A. Abduraximova[20] kabi tadqiqotchilar ishlarida urush yillaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar turli yo'nalishlarda tahlil qilingan. Xususan, xotin-qizlar masalasi ham ayrim tadqiqotlarda yoritilgan.

Shu bilan birga, mazkur ishlarda xotin-qizlarning urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati asosan umumrespublika miqyosida ko'rib chiqilgan bo'lib, Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida ularning ishtirokini alohida va chuqur o'rganish zarurati mavjud.

Uchinchi guruhga xorijiy tadqiqotchilar asarlari kiradi. Ushbu adabiyotlarda Ikkinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy safarbarlik, mehnat resurslaridan foydalanish hamda jamiyatning urush sharoitiga moslashuvi keng tahlil qilingan.

M. Harrison Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining urush davridagi holatini o'rganib, ishlab chiqarishda ayollar mehnatining muhim o'rin tutganini ko'rsatadi[21]. W. Z. Goldman esa ayollarning mehnatga jalb etilishi va ularning ijtimoiy mavqeini davlat siyosati bilan bog'liq holda tahlil qiladi[22]. R. Markwick va E. Cardona tadqiqotlarida sovet ayollarining front va front ortidagi hayoti gender yondashuv asosida yoritilgan[23]. Shuningdek, D. Filtzer va J. Jones ishlarida urush davridagi mehnat munosabatlari va ayollarning iqtisodiy faoliyati faktik materiallar asosida tahlil qilingan[24].

Shu bilan birga, xorijiy tarixshunoslikda O'zbekiston xotin-qizlarining urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati asosan umumiy SSSR kontekstida tilga olinadi va alohida tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli mazkur masalani hududiy kesimda, xususan Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida kompleks tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

SSSRning Ikkinchi jahon urushiga jalb etilishi mamlakat iqtisodiyotini, ayniqsa sanoat sohasini harbiy ehtiyojlarga mos ravishda qayta tashkil etishni taqozo etdi. Shu maqsadda Davlat Mudofaa Qo'mitasi tomonidan 1941-yil 16-avgustda “1941-yil IV choragi va 1942-yil uchun Volgabo'yi, Ural, G'arbiy Sibir,

Qozog'iston hamda O'rta Osiyo hududlarining harbiy-xo'jalik rejasi to'g'risida"gi qaror qabul qilindi[25:44]. Mazkur qaror sharqiy hududlarda, jumladan O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, qishloq xo'jaligini yuksaltirish, mudofaa sanoatining yangi tarmoqlarini rivojlantirish hamda frontni zarur mahsulotlar bilan uzluksiz ta'minlash vazifalarini belgilab berdi.

Urush yillarida O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining harbiy izga o'tkazilishi jarayonida xotin-qizlarning mehnat faolligi keskin oshdi. Erkaklarning katta qismi frontga safarbar etilishi natijasida sanoat korxonalarida yuzaga kelgan ishchi kuchi tanqisligi asosan ayollar hisobiga to'ldirildi. Shu tariqa xotin-qizlar sanoat ishlab chiqarishining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Arxiv va statistik ma'lumotlarga ko'ra, urushning dastlabki oylaridayoq bu jarayon keng ko'lam kasb etdi. Jumladan, 1941-yilning birinchi oylarida Toshkent shahridagi zavod va fabrikalarga 20 mingdan ortiq xotin-qiz ishga joylashish istagini bildirib murojaat qilgan. Bu holat ayollarning ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etilganligini yaqqol ko'rsatadi.

Sanoat tarmog'ida ayollar ulushining ortishi statistik ko'rsatkichlarda ham aks etdi. 1941-yil 1-yanvar holatiga ko'ra sanoat ishchilari tarkibida ayollarning ulushi 40,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1943-yilga kelib bu ko'rsatkich 63,5 foizga yetgan[26:216-217].

Urush yillarida yuz minglab xotin-qizlar frontga ketgan erlari, aka-ukalari va otalarining o'rnini egallab, ishlab chiqarish jarayonida faol mehnat qildilar. Ular og'ir va murakkab kasblarni ham o'zlashtirib, ishlab chiqarish rejalari va normativlarini ortig'i bilan bajarishga erishdilar. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" shiori ularning mehnat faoliyatida asosiy ruhiy omil bo'lib xizmat qildi.

Masalan, "Krasnaya Zarya" fabrikasining ishchilari orasida A. Kondratyova ikki, keyinchalik uchta stanokda ishlab, ishlab chiqarish rejasini 200 foizga bajarishga erishgan. Uning izdoshlari bo'lgan boshqa ishchilar ham kundalik mehnat normativlarini 220–240 foizga yetkazga.[27:12].

"Tashselmash" zavodining harbiy ishlab chiqarishga moslashtirilishi jarayonida ham xotin-qizlar muhim rol o'ynadi. 1941-yilda zavoddan 585 nafar ishchi frontga safarbar etilgan bo'lib, bu ishchi kuchi yetishmovchiligini kuchaytirdi. Natijada ishlab chiqarish jarayoniga ayollar jalb etildi. Qisqa muddat ichida zavodga 80 nafar ayol ishga qabul qilindi. 1942-yil boshida ular umumiy ishchilarning 42,1 foizini, yil oxiriga kelib esa 53,2 foizini tashkil etdi[28:17].

Qishloq xo'jaligida ham xotin-qizlar mehnati muhim ahamiyat kasb etdi. Urush yillarida ular kolxoz va sovxozlarda ishlab, brigada va zveno rahbarligi vazifalarini bajardilar. Toshkent viloyati Ohangaron tumanida Jo'rayeva, Oltinko'1 zveno boshlig'i Tursunxon Karimova kabi ayollar mehnatlari bilan ajralib turdilar[29:12]. Ularning tashabbusi bilan respublika bo'ylab zarbdor front zvenolari tashkil etildi.

Bekobod rayonida 60 dan ortiq zarbdor zvenolar tuzilib, ular kunlik me'yorlarni 2–3 barobar ortig'i bilan bajarishga erishdilar[29:12]. Jambul rayonidagi Ilich nomli kolxozda Rahima Akimova zvenosi qo'shimcha ravishda 40 tonnaga yaqin qand lavlagi yetishtirib, front uchun muhim oziq-ovqat resursini ta'minlashga hissa qo'shdi.

Shuningdek, 1941-yil 16-avgustdagi qarorga muvofiq sanoatni harbiy izga o'tkazish jarayonida kimyo, rezina, yog'och-qog'oz, to'qimachilik, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlantirildi. Shu asosda O'zbekistonda yengil sanoat, ayniqsa to'qimachilik tarmog'ini kengaytirish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning sanoat va qishloq xo'jaligidagi mehnat faolligi keskin oshib, ular xalq xo'jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biriga aylandi.

Urush sharoitida sanoatni harbiy izga o'tkazish jarayoni keyingi bosqichda yengil sanoat va to'qimachilik tarmog'ida yanada chuqurlashdi hamda ayollar mehnatining o'rni sezilarli darajada kengaydi.

Urush yillarida O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini harbiy izga o'tkazish jarayonida yengil sanoat, xususan to'qimachilik tarmog'i muhim o'rin egalladi. G'arbiy hududlardan ko'chirilgan korxonalar qisqa muddat ichida ishga tushirilib, ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi asosan xotin-qizlarni tezkor tayyorlash orqali hal etildi. Natijada 1942-yil oxiriga kelib ayrim korxonalarda ishchilar soni 1400 nafardan oshib, ularning qariyb 90 foizini ayollar tashkil etdi[30:22].

Urush sharoiti ishlab chiqarishda yangi mehnat usullarini joriy etishni taqozo etdi. Shu davrda ko'p stanokda ishlash tizimi keng tarqaldi. Toshkent to'qimachilik kombinati ishchisi Muhabbat Nosirova ushbu harakatning ilg'or vakillaridan biri bo'lib, u bir necha stanokda ishlash tajribasini ishlab chiqarishga tatbiq etdi va uni boshqa ishchilarga ham o'rgatdi[27:13]. Natijada korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshdi.

1943-yilga kelib yengil sanoatda sotsialistik musobaqa harakati keng rivojlandi. Toshkentdagi yirik fabrikalarda yuzlab ayollar ushbu jarayonda faol ishtirok etib, yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishdilar. Ayrim ishchilar ishlab chiqarish normasini 200–240 foizgacha bajarishga muvaffaq bo'ldilar[31].

Shu bilan birga, urush yillarida yengil sanoat bir qator qiyinchiliklarga ham duch keldi. Yordamchi materiallar yetkazib berilishining uzilishi hamda kapital qo'yilmalar hajmining kamayishi ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 1942-yilda to'qimachilik sanoati bo'yicha investitsiya rejasi sezilarli darajada past darajada bajarildi.

Biroq shunga qaramay, sanoat ishlab chiqarish sur'atlari barqaror o'sishda davom etdi. 1944–1945-yillarda korxonalarda jangovar brigadalar soni keskin oshib, ayrim fabrikalarda ishlab chiqarish rejasi 150 foizdan ortiq darajada bajarildi[32:10]. Natijada 1942-yilning ikkinchi yarmida respublika sanoat ishlab chiqarishi 1941-yilga nisbatan deyarli ikki baravar oshdi.

Urush yillari davomida O'zbekistonda sanoat salohiyati ham sezilarli darajada kengaydi. Yangi korxonalar ishga tushirilishi natijasida og'ir sanoat mahsuloti hajmi 1940-yilga nisbatan bir necha barobar oshdi. Yoqilg'i-energetika va metallurgiya tarmoqlarida ham sezilarli o'sish kuzatilib, neft, ko'mir va elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi.

Umuman olganda, urush yillarida sanoatning respublika iqtisodiyotidagi ulushi sezilarli darajada oshib, O'zbekiston iqtisodiyoti harbiy ishlab chiqarish tizimiga moslashtirilgan industrial bazaga aylana boshladi.

XULOSA

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti, xususan sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari keskin harbiylashtirilgan sharoitda rivojlandi. Erkak aholining frontga safarbar etilishi natijasida yuzaga kelgan ishchi kuchi tanqisligi asosan xotin-qizlar hisobiga to'ldirildi. Ular sanoat korxonalarida, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida, shuningdek qishloq xo'jaligida muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida faol ishtirok etdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, urush yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki nafaqat miqdor jihatdan ortgan, balki sifat jihatdan ham yangi bosqichga ko'tarilgan. Ular ishlab chiqarishning murakkab turlarini o'zlashtirib, yuqori mehnat natijalariga erishgan hamda xalq xo'jaligining barqaror ishlashini ta'minlashga muhim hissa qo'shgan.

Shu bilan birga, urush davrida sanoatni harbiy izga o'tkazish, evakuatsiya qilingan korxonalarni joylashtirish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jarayonlari xotin-qizlarning mehnat faolligini yanada kuchaytirgan. Ayniqsa, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida ayollar ulushining keskin oshishi iqtisodiy tizimning uzluksiz ishlashida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi ishtiroki tarixiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu holat ularning jamiyat rivojidagi o'rnini va ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Toshxo'jaeva N. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945) Toshkent. Fan 1985. – 56 b.
2. Ибрагимова А. Ю. Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987
3. Po'latov I Buyuk g'alabada O'zbekiston hissasi Tarix. Toshkent: O'zbekiston, 1974.—146 b.
4. Аминова Р. Х. История рабочего класса Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1966. – 238 с.
5. Ордуханов В. А. Подготовка кадров колхозного производства Узбекистана в период ВОВ Советского союза (1941-1945 гг.) Автореферат дис. ... кандидат исторических наук. – Ташкент. 1963. – 16 с.
6. Шукурова Х. С. Социализм и женщина Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 337 с.
7. Сулаймонова Х. С. Ўзбекистон хотин-қизлари – коммунистик курилишининг актив қатнашчилари. – Тошкент: Ўзбекистон ФА, 1955. – 40 б.
8. Рахимбаева З. Женщина Узбекистана на пути к коммунизму. – Ташкент: Госиздат УЗССР, 1949. – 75 с.
9. Oxunova M. O'zbekiston xotin-qizlari – kommunizm bunyodkorlari. – Toshkent: Fan, 1984. – 48 b.
10. Мурманцева В. С. Советские женщины в Великой Отечественной войне. – Москва, 1974. – 145 с.

11. Ибрагимова З. Ф. Коммунисты Узбекистана – организаторы патриотических подвигов женщин (1941–1945 гг.). – Москва, 1953.
12. O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida: kitob-albom. – Toshkent: O‘zbekiston НМИУ, 2020. 320 b.
13. Халикова Р. Э. Развитие высшего исторического образования и науки в Узбекистане (на примере исторического факультета ТашГУ 1935-1994 годы) Автореферат дис. ... кандидата исторических наук: 07.00.02- отечественная история. – Ташкент, 1995. – 27 С.
14. Azimov H.I. Ikkinchi jahon urushida O‘zbekiston harbiylari ishtiroki va mavqei (1941–1945 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004. – 191 b
15. Babadjanov X. B. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi transformatsion jarayonlar: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent, 2018. – 156 b.
16. Murtozova S. B. XIX asr oxiri - XX asrning 80-yillarida O‘zbekiston musiqa madaniyatidagi transformatsiya jarayonlari tarix fan. falsafa d-ri dis. : 07.00.01. – Toshkent, 2018. – 170 b.
17. Ungboeva B. O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san’ati tarixi tarix fan. falsafa d-ri dis. : 07.00.01. – Toshkent, 2018. – 168 b.
18. Safarova Z. S. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati: dis. ... PhD. – Samarqand, 2020. – 170 b.
19. Jumaniyazova F. J. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati Tarix fanlari falsafa doktori (PhD) ... dis. Avtoreferati: 07.00.01- O‘zbekiston tarixi. – Urganch, 2024. – 54 b.
20. Abduraximova Sh. A. O‘zbekiston SSRda aholi salomatligi va tibbiy xizmat muammolari (1941–1991 yillar) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 154 b.
21. Harrison M. Accounting for War: Soviet Production, Employment, and the Defence Burden, 1940–1945. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 252 p.
22. Goldman W. Z. Women, the State and Revolution: Soviet Family Policy and Social Life, 1917–1936. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 382 p.
23. Markwick R., Cardona E. Soviet Women on the Frontline in the Second World War. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – 307 p
24. Filtzer D. Soviet Workers and the Late Stalinist State. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 305 p.
25. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. В 5 т.: Сб. док. за 50 лет. Т. 3. 1941-1952 гг. — М.: Политиздат, 1968.с.44
26. Узбекская ССР. – Ташкент.1981. – С.555
27. Madrahimova R. O‘zbekiston xotin-qizlarining Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi mehnat va jasoratlari. – Toshkent, 1981. – B.64
28. Калымбетов Ж. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие промышленности и транспорта в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент, Государственное издательство Узбекской ССР, 1958. С.120

29. O'z MA.F 90. R 8. I 5571. V 122.
30. М.Юлдашева. Женщины Узбекистана – фронту. – Ташкент Узбекистан. 1982. – 120 с.
31. O'z MA. F 400. R 1. I. 1138. V 221
32. To'laganova M. O'zbekiston xotin-qizlari Ulug' Vatan urushi yillarida. – Toshkent : n-siz, 1974. – 20 b.
33. Voskoboynikov E. A(М.Иbroximov tarjimasi) O'zbek xalqi Ulug' Vatan urushi yillarida. – Toshkent, 1947. – С.47
34. Народное хозяйства Узбекский ССР в 1978 году Статистический ежегодник. – Ташкент, 1979. – С.203

Ишанходжаева З.Р.

д. и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
zamira.i@rambler.ru

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА И ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется участие женщин Узбекистана в экономической жизни в годы Второй мировой войны, их трудовая активность в промышленности и сельском хозяйстве, а также роль в производственных процессах. В исследовании освещаются экономические изменения, возникшие в условиях войны, значение женщин как трудового ресурса, а также их широкое привлечение к производственным процессам. Кроме того, на основе исторических источников рассматривается эффективность труда женщин на промышленных предприятиях и в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекистан, женщины, экономическая жизнь, промышленность, сельское хозяйство, трудовая активность, тыл, эвакуация, текстильная промышленность.

Ishankhodjaeva Z.R.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

zamira.i@rambler.ru

**THE PARTICIPATION OF UZBEK WOMEN IN ECONOMIC LIFE
DURING THE SECOND WORLD WAR (A CASE STUDY OF TASHKENT
CITY AND TASHKENT REGION)**

ABSTRACT

This article analyzes the participation of Uzbek women in economic life during the Second World War, their labor activity in industry and agriculture, and their role in production processes. The study highlights the economic transformations that emerged under wartime conditions, the significance of women as a labor force, and their extensive involvement in production activities. In addition, the efficiency of women's labor in industrial enterprises and agriculture is examined based on historical sources.

Key words: Second World War, Uzbekistan, women, economic life, industry, agriculture, labor activity, home front, evacuation, textile industry.